



**1920-1930 yillarda O'zbekistonda xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy ahvoli
(Farg'ona vodiysi materiallari asosida)**

Maxmudova Nilufarxon

Mustaqil tadqiqotchi

Abdullayev Muzrobjon

Ilmiy rahbar

Annotatsiya: Bugungi kunga kelib, jamiyatimizda har bir jabhada xotin-qizlarning roli yanada ortib bormoqda.

Ayniqsa yangi Ozbekiston yillarida muhtaram Prezidentimiz SH.Mirziyoyev boshchiligidagi olib borilayotgan islohotlar zaminida jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish, gender tenglik masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda.

Kalit so'zlar: Qo'shchi, qo'mita, s'ezd, kommunistik, mahalliy, millat, tashabbus, milliy.

Mustaqillik tufayli xalqimiz tarixshunosligida soxtalash tirilgan sovet davri tarixini yangicha va xolis yondashuv asosida milliy goya nuqtai nazaridan mushohada qilish uchun imkoniyat yuzaga keldi.

RKP(b)ning XIII s'ezdida qabul qilingan «Ishchi va dehqon ayollar o'rtasida olib boriladigan ish to'g'risida»gi qarorda «partiya qo'mitalari tomonidan SHarq mehnatkash ayollari o'rtasida olib boriladigan ishga rahbarlik qilish, ishlab chiqarish va partiyaga jalb



etishni kuchaytirish» masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Qaror asosida ayollar o'rtasida olib boriladigan ishni kuchaytirish uchun maxsus jamgarma tashkil etildi.

VKP(b) Markaziy Qo'mitasi tashkiliy byurosining «SHarq ishchi, dehqon va mehnatkash ayollari orasida olib boriladigan ishning navbatdagi vazifalari to'g'risida"gi qarorida (1924 yil) esa, xotin-qizlar ozodligiga qarshilik ko'rsatuvchi reaksiya elementlarga nisbatan kurashni kuchaytirish, aholining xotin-qizlar qismi o'rtasida socialistik turmush tarzi targ'ibotini oshirish zarurligi ta'kidlangan bo'lib, mahalliy xotin-qizlar o'rtasida quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish tavsiya etilgan:

- ularni partiya va sovet, professional va kooperativ kurilishga imkon qadar ko'proq jalb etish;
- xotin-qizlarning ijtimoiy hayotda erkaklar bilan baravar ishtirok etishi uchun yordam beradigan muassasalarni rivojlantirish;
- ishchi va dehqon ayollar o'rtasida sovet va kommunistik ma'rifat ishlarini kuchaytirish;
- ishchi ayollarning malakali mehnatini kuchaytirish, ularning ishlab chiqarishdagi mavqeini mustahkamlash.

Mahalliy sovetlar (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari) esa, ayollarni ishlab chiqarishga, maktablarga va boshqa ma'rifiy muassasalarga kengroq jalb etish, xotin-qizlar va bolalar muassasalari tarmog'ini yaratishga da'vat etdi. Yildan-yilga xotin-qizlarning siyosiy faolligi ortib bordi. Agar 1925 yilda Uzbekistonda sovet apparatining quyi organlarida 200nafar ayol ishlagan bo'lsa, 1926 yilda faqat Fargona viloyati bo'yicha qishloq kengashlariga 665 nafar ayol saylangan. «Kushchi» ittifoqlariga a'zo bo'lgan ayollar soni ham ko'payib borgan.

Ma'lumki, yangi hokimiyatning dastlabki tadbirlari xotin- qizlarning oilaviy huquqiga qaratildi. Ya'ni tub millat xotin- qizlarini «ozod etish»ga qaratilgan, ularning «erkaklar bilan to'la tengligini qonuniy tartibda belgilaydigan, ko'p xotinlilik. qalin



berish, balog'atga yetmagan qizlarni zo'rlab erga berish ta'qiqlangan qonunlar» qabul qilindi. Jumladan, «Xotin-qizlar va erkaklarga teng mehnat uchun teng haq to'lash to'g'risida», «Onalik va bolalikni muhofaza etish to'g'risida» dekretlar qabul qilindi. Ammo ularning hammasi «xo'jako'rsinga» e'lon qilingan bo'lib, amaldagi ijrosiga e'tibor qaratilmadi. Sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiyot xodimlari va moddiy-texnika bilan ta'minlanishi qoniqarli darajada emas edi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida ham o'rinlar yetishmasdi.

Sovet Rossiyasi 1918 yilda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollarning yuridik teng huquqliligini e'lon qilib, ushbu moddani o'z Konstitutsiyasiga kiritgach, barcha sovet Respublikalarining Konstitutsiyalari, shu jumladan, Turkiston Avtonom Respublikasi Konstitutsiyasiga ham shunday modda kiritildi (1918 yil, oktyabr). Mazkur birinchi sovet Konstitutsiyasida xotin-qizlarga erkaklar bilan birga davlat lavozimlariga saylash va saylanish huquqi berildi.

Biroq mavjud tarixiy sharoitlarda xotin-qizlar tengligini ta'minlash masalasiga tadrijiy ravishda yondashish zarur edi.

SHariat va odat qonunlari bo'yicha yashaydigan musulmon jamiyati ayolni an'anaviy suratda faqat uy bekasi sifatida qabul qilganligi tufayli uzoq yillar davomida xotin-qizlarni ozod qilishning sovet modeliga qarshi kurash olib borildi.

SHuning uchun ham, dastlabki paytlarda teng saylov huquqlari, nikohga qarshi va ajralish paytida er-xotinlarning teng huquqliligi, voyaga yetmagan qizlarni erga berishni ta'qiqlap:, nikoxdarning majburiy tarzda sovet hokimiyati organlari tomonidan ro'yxatga olinishi kabi masalalar qog'ozda qolib ketdi. Mahalliy aholi shariat va ming yillik an'analar asosida yashashda davom etdi.



Biroq, erkak va ayolllar teng huquqdiligining rasman tan olinishi ayollarning ijtimoiy hayotga, birinchi navbatda, ijtimoiy ishlab chiqarishga keng jalb qilinishi uchun asos yaratdi.

Xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, jamiyatda ularning erkaklar bilan teng huquqdiligini ta'minlash, balog'atga yetmagan qizlarni erga berishni ta'qikdash kabi ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalar dastavval ma'rifatparvarlarning ham harakat dasturida o'z ifodasini topgan edi.

Jadidchilik jamiyat rivojiga to'siq bo'layotgan xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi barham topgan ijtimoiy-siyosiy huqukdarini, erkinliklarini tiklash, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash, ma'rifat qoloqligi va

o'rta asrdan saqlanib qolgan eskicha munosabatlardan kutulish to'g'risidagi yangi g'oyaviy oqimlarni o'zlashtirgan xolda O'rta Osiyo musulmon jamiyati qoloqligini va jaholatini bartaraf etish uchun g'arb yutuqlarini singdirishni targ'ib qilardi. CHunki jadidlar ma'rifatsiz jamiyatda hukmronlik qiladigan o'zboshimchalik, jabr-zulm, adolatsizlik, johillik, zo'ravonlik avvalam bor ayollar hayotida tezroq va to'laroq o'z ifodasini topishini yaxshi anglagan. SHuning uchun ham, ular xotin-qizlarni ma'rifatli qilish, ijtimoiy faolligini oshirish, ularning iste'dod va qobiliyatlarini ishga solish, diniy va dunyoviy ilm imkoniyatlaridan foydalanishlari uchun sharoit yaratish, o'zbek ayollarini yevropa ayollaridek erkaklar bilan teng huquqli hayot kechirishlari mumkinligi haqida mushohada yuritishib, ularni yangicha ozod hayot kechirishga chaqirishgan. Biroq jadidlarning mustabid sovet hokimiyati tomonidan qatag'on qilinishi bilan o'zbek xotin-qizlari o'zlarining haq-huquqlari uchun kurashida hayrihoxlik qilib, dalda bo'lgan ijtimoiy guruhdan mahrum bo'ldi.

Jadidlar «xotin-qizlarni jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida qabul qilmasdan, oila masalasini to'g'ri hal qilmasdan, yosh avlodni to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib,



jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas, oxir-oqibatda millat taqdiri uning ayollari va oilasining holatiga bog'liqdir» — deb, o'z harakatlari davomida quyidagi g'oyalarni hayotga tatbiq etish uchun kurashdilar:

- ayollarning oiladagi o'rnini belgilash orqali, ularning jamiyatdagi mavqeini oshirish, diniy va dunyoviy ishlardagi ishtirokida teng huquqlilikni ta'minlash;
- xotin-qizlarning millat tayanchi ekanligidan, yosh avlodning ijtimoiy, axloqiy va mehnat tarbiyasida mas'ulligidan kelib chiqib, ularni ma'rifatli qilish;
- har qanday jamiyatning madaniy-ma'naviy darajasi xotin-qizlarga bo'lgan munosabat bilan belgilanishi bois, ularga nisbatan salbiy munosabatni o'zgartirish.

Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ayol, oila, jamiyat masalalari umuminsoniy muammolarni hal etishga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda ham yuksak ahamiyatga egadir.

Jadidlardan farkdi o'laroq, sovetlar xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etish orqali o'z mustamlakachilik siyosatining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalandilar. Jumladan:

- sovetlar mahalliy millat ayollarini ijtimoiy-siyosiy jabhaga tortib, ulardan partiya saflarini to'ldirib, «yangi sotsialistik jamiyat»ni qurishda o'z tarafdorlariga erishishga intildi;
- o'zbek ayollarining tabiatida mavjud bo'lgan vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'ularini sun'iy ravishda Ittifoq deb atalgan hududga yoyishga harakat qildi;
- sovetlar mahalliy millat xotin-qizlaridan g'arazli maqsadlar yo'lida foydalanib, ularning siyosiy va huquqiy ongini shakllantirmaslikka qaratilgan siyosat olib bordi;
- bu esa, o'z navbatida, mahalliy millat vakillarida milliy o'zlikni anglash va mustaqillik uchun kurashishga zarur bo'lgan tug'ma ehtiyojlarning uyg'onishiga yo'l qo'ymadi.



Yuqorida ta’kidlanganidek, 20-yillarning birinchi yarmi kommunistik mafkura tazyiqidan biroz holi davr bo’lganligi bilan izohlanadi. SHuning uchun ham, sovet hokimiyati xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb qilish borasidagi chora-tadbirlarini amatga tatbiq etishda «tashabbus» ko’rsatgan xotin-qizlar harakati faollari dastlab asosan, ishontirish usullari orqali mahalliy millat xotin-qizlari hayotiga kirib bordilar. Bu esa, ularning xotin-qizlar huquqini ta’minlash, ularni yaratuvchilik, jamoatchilik ishlari ga jpb etishida muayyan yutukdarga erishishiga sabab bo’ldi. Bu yutuqlarga faqat o’zbek xotin-qizlari ruhiyatidagi vatanparvarlik, shijoat, tashabbuskorlik kabi tuygular orqaligina erishildi.

FOYDALANILGAN MAHBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. O’ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT (X X ASRNING 20-80 YILLARI MISOLIDA) (o’quv qo’llanma) NILUFAR JO’RAEVA
2. Abdullaeva D. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ayolning roli.// O’zbekistonda oila, davlat va jamiyat kurul ishida ayollarning roli va gender muammolari: Ilmiy-amaliy konf. Ma’ruzalari to’plami. — T.: 1999. — B. 38—42.
3. An’analar, din va ayollarning ijtimoiy maqomi // O’zbekiston Respublikasi xotin-qizlarining ahvoli to’g’risida ma’ruza, RBEC // Undz, 1999. — 95 b.
4. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Davriy to’plam, №1). — T.: 1999. — 218 b.
5. Kamolov U. O’zbekistonda xotin-qizlar maorifining rivojlanishi// Sovet maktabi. 1974. №1.B. 16—21.
6. Rahimova G. Jadidlar va ayollar masalasi // Adabiy meros.1992. №1. B. 63—66